

TAKRORAN SODIR ETILGAN QILMISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI KELTIRIB CHIQRADIGAN MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR.

Islomov Diyorbek

Bojxona instituti 2-kurs kursanti

F.Qarshiboyev

*Ilmiy rahbar: Bojxona instituti umumhuquqiy fanlar kafedrası
boshlig'i podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada bojxona sohasida takroriy ravishda sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar qanday holatlarda jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, bunday javobgarlikka olib keluvchi qo'shimcha omillar va qonunchilikdagi tegishli normalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Bojxona sohasi, bojxona organlari, huquqbuzarlik, qonunchilik, ko'p miqdor, ijtimoiy xavflilik, ijtimoiy xavflilik darajasi, ancha miqdor, juda ko'p miqdor.

Аннотация. В статье анализируются случаи, при которых повторные административные правонарушения в таможенной сфере могут повлечь уголовную ответственность. Кроме того, рассматриваются дополнительные факторы, способствующие привлечению к такой ответственности, а также соответствующие нормы законодательства.

Ключевые слова: Таможенная сфера, таможенные органы, правонарушение, законодательство, крупный размер, общественная опасность, степень общественной опасности, значительный размер, особо крупный размер..

Annotation. The article analyzes the circumstances under which repeated administrative offenses in the field of customs may lead to criminal liability. Additionally, it examines the contributing factors that may result in such liability and reviews the relevant legal provisions.

Keywords: Customs sphere, customs authorities, offense, legislation, large amount, social danger, degree of social danger, significant amount, especially large amount.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shu bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «O'zbekistonda adolat mezonı, qonun ustuvorligi ta'minlanayapti degan muhit yaratilsa, bizda juda katta imkoniyatlar paydo bo'ladi»[1]. Bu yondashuv, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning

mas'uliyatini oshirish va huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik tamoyilini mustahkamlashda o'z ifodasini topmoqda.

Ayniqsa, bojxona sohasida sodir etilayotgan ayrim huquqbuzarliklar borki, ular birinchi marta aniqlanganda, ma'muriy javobgarlik bilan cheklanadi, ammo takroran sodir etilsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bu esa, huquqbuzarliklar orasidagi chegarani, ularning ijtimoiy xavflilik darajasini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ijtimoiy xavflilik darajasi — bu huquqbuzarlikning jamiyat uchun qanchalik xavf tug'dirishini, ya'ni uning oqibatida davlat, jamiyat yoki fuqarolarning manfaatlariga yetkazilgan zararining og'irlik darajasini ifodalovchi huquqiy-me'yoriy kategoriya hisoblanadi. Ushbu daraja huquqbuzarlikning xususiyati, sodir etilish shart-sharoitlari, takroriyliigi, zarar miqdori, shaxsning niyati va boshqa omillar asosida belgilanadi. Ijtimoiy xavflilik darajasi, odatda, ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi farqni aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishda muhim ahamiyatga ega. Chunki huquqbuzarlikning qanday javobgarlik chorasi bilan baholanishi, avvalo, uning jamiyat uchun qanday xavf tug'dirishiga bog'liq. Huquq normalarida ko'rsatilganidek, har qanday huquqbuzarlik ijtimoiy xavf tug'diradi, biroq ularning xavflilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli, yengilroq, kam zararli huquqbuzarliklar ma'muriy javobgarlik doirasida ko'rib chiqiladi, ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan harakatlar esa jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida keltirilgan ayrim tushunchalar javobgarlikning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishini belgilab beradi. Masalan: baravari va undan ortiq. Bu miqdorda faqatgina jinoiy javobgarlikka tortiladi.[3] Ko'p bo'lmagan zarar - BHMning 30-100 baravarigacha. Bu tushuncha, asosan, mamuriy huquqbuzarlik sifatida qaraladi va jarima, tovarlarni musodara qilish kabi mamuriy sanksiyalar qo'llaniladi. Ancha miqdor - BHMning 100-300 baravarigacha. Bu miqdor mamuriy va jinoiy javobgarlik chegarasida joylashgan. 100-200 baravar miqdor odatda mamuriy javobgarlik, 200-300 baravar miqdor esa jinoiy javobgarlik doirasiga kirishi mumkin.

Ko'p miqdor - BHMning 300-500 baravarigacha. Bu miqdor ba'zi hollarda jinoiy javobgarli, ba'zi hollarda esa ma'muriy javobgarlik doirasiga kiradi.

Juda ko'p miqdor (500 baravar va yuqori)

Mamuriy javobgarlik holatlari	Jinoiy javobgarlik holatlari
Ko'p bo'lmagan zarar (30-100 baravar BHM) faqat ma'muriy javobgarlik	Juda ko'p miqdor (500 baravar va yuqori)-faqat jinoiy javobgarlik
Ancha miqdor (100-300 baravar	Ancha miqdor (100-300 baravar

BHM)(100-200 baravar, asosan, ma'muriy javobgarlik)	BHM)(200-300 baravar, asosan, Jinoiy javobgarlik)
Ko'p miqdor- Ma'muriy Javobgarlik To'g'risidagi Kodeksning 227 ¹⁹⁻²⁰⁻²¹⁻²² -moddalari 1 yil davomida 1 marta ko'p miqdorda sodir etilsa	Ko'p miqdor-- Ma'muriy Javobgarlik To'g'risidagi Kodeksning 227 ¹⁹⁻²⁰⁻²¹⁻²² -moddalari 1 yil davomida takroranva ko'p miqdorda sodir etilsa

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (bundan buyon matnda JK deb yuritiladi) 182-moddasining [birinchi qismi](#) bo'yicha jinoiy javobgarlik tovar va transport vositalarini ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining [227¹⁹](#), [227²⁰](#), [227²¹](#)-moddalari va 227²²-moddasining [birinchi qismi](#)) shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida yana shunday huquqbuzarliklardan birini ko'p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqadi[4].

Yuqorida keltirilgan ma'umot O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2-sonli qarorida keltirib o'tilgan bo'lib, uni quyidagicha talqinda izohlash mumkin. Ushbu holatda jinoiy javobgarlik deb topilishi uchun fuqaro 1 yil mobaynida ma'muriy huquqbuzarlik takroran va ko'p miqdorda sodir etgan bo'lishi kerak.

37-modda. Tugaganidan so'ng shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadigan muddat

Basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.[2]

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ushbu moddasiga asosan fuqaro ma'muriy jazoga tortilgan yoki tortilmaganligi aniqlanadi. Bu esa yuqoridagi holatni aniqlash uchun yordam beradi. Quyida keltirilgan misol orqali biz ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik qachon va qanday hollarda jinoiy javobgarlikka aylanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

227¹⁹-modda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlarni qo'llanish tartibiga rioya qilmaslik [2]

Ushbu modda iqtisodiy siyosat choralari va cheklovlar qo'llaniladigan tovarlarni belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan o'tkazish uchun mamuriy javobgarlikni belgilaydi. Uning sanksiyalari quyidagi darajada bo'lishi mumkin:

Birinchi marta huquqbuzarlik	Takroriy huquqbuzarlik (1 yil ichida)
Fuqarolar: 5-10 baravar BHM jarima	Fuqarolar: 10-15 baravar BHM jarima
Mansabdor shaxslar: 7-15 baravar	Mansabdor shaxslar: 15-30 baravar

BHM jarima	BHM jarima
Qo'shimcha: Tovarlarini musodara qilish(faqat sud qarori orqali)	Qo'shimcha: Tovarlarini musodara qilish(faqat sud qarori orqali)

Agar takroriy huquqbuzarlik 1 yil ichida va ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, bu holat uchun javobgarlik ma'muriy javobgarlikdan jinoiy javobgarlikka o'zgaradi. Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mamlakatimizda huquqiy islohotlar jarayonida huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini aniq belgilash va unga mos ravishda javobgarlik choralarini qo'llash prinsipiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bojxona sohasida bu yondashu, ayniqsa, dolzarb bo'lib, huquqbuzarliklar ko'pligi va ularning iqtisodiy xavfsizlikka tahdidi bunga ehtiyojimiz borligini isbotlab beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ba'zi huquqbuzarliklar (masalan, 227¹⁹–227²²-moddalar doirasidagi bojxona tartib-taomillarini buzish) dastlab ma'muriy javobgarlik bilan cheklansa-da, ularning takroran va ko'p miqdorda sodir etilishi jinoiy javobgarlikka olib keladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasining mezon sifatida belgilanishi ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi chegara chizig'ini aniqlashga xizmat qilmoqda. Biroq amaliyotda huquqbuzarlik miqdorining baholanishi, "takroran" va "ko'p miqdor" kabi tushunchalarning izchil talqin qilinmasligi huquqni qo'llashda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Bunga yechim sifatida normativ-huquqiy aniqlikni ta'minlash, ya'ni "Ko'p miqdor", "ancha miqdor", "takroran" kabi tushunchalarning yagona izohini beruvchi sharh yoki normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks o'rtasidagi bog'liqlikda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.facebook.com/watch/?v=287601602161207>
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy Javobgarlik To'g'risidagi Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 20.02.2023-yildagi 2-sonli qarori